

## **HUDUDLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA DAM OLISH VA DAVOLANISH MASKANLARINING O'RNI**

**Hamzayeva Dilfuza**

O'qituvchisi

Termiz Davlat Universiteti

Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasи

Turizm yo'naliishi

**Madatova Mahliyo**

4-kurs talabasi

### **Anotatsiya**

Ushbu maqolada Surxondaryoda tibbiyot turizmini rivojlantirish bayon etilgan. Tibbiyot turizmi uchun resurs bo'la oladigan maskanlar haqida so'z yuritiladi. Darhaqiqat, ushbu maskanlarda ichki turizm yaxshi rivojlangan. Faqatgina buni xorijiy davlatlarga ham taqdim etish va turizmn ni yanada rivojlantirish lozim.

**Kalit so'zlar:** Surxondaryoda tibbiyot turizmini rivojlantirish, tibbiyot turizmi uchun resurslar, ichki turizm.

### **KIRISH**

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotida yetakchi sohalardan biriga aylangan. Yildan yilga sayohat qiluvchilar soni ham oshib bormoqda. Bu esa turizmga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi. Ko'plab davlatlar iqtisodiyotida asosiy o'rinn ham egallay boshladи. Xususan, 2019-yilda turizm sohasida 330 mln kishi ishlaganligi ham buning isboti. Shu sababli turizm sohasining yo'naliishlari ko'paydi, bu sohada kadrlar yetisha boshladи. Turizm turlariga keladigan bo'lsak, sayohat qiluvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir qancha turlari yuzaga keldi: agro turizm, spa turizmi, sport turizmi, ekoturizm, etnik turizm va h.k. bundan tashqari, insonlarning nafaqat dam olish shuningdek, davolanish uchun ham sayohat qilishi tibbiyot turizmini muhim ahamiyatga aylantirdi.

Surxondaryo viloyati ham dam olish va davolanish turizmi uchun yetarlicha resurslarga ega sanaladi. Hududimizda eng avvalo tabiatning inomi bo'lgan to'rtta shifobaxsh suv manzilgohini ko'rish mumkin. Bular Omonxona, Gidrozil ota, G'o'rinduloq va Xo'jaipok ziyoratgohlari sanaladi. Ushbu maskan suvlari shifobaxsh bo'lganligi uchun mahaliy aholi ko'p tashrif buyurishadi. Ko'plab insonlar bu

makondan o‘z dardlariga shifo topib ketishgan. Bundan tashqari Surxondaryoda dam olish maskani hisoblangan Marvarid sanatoriyasi va o‘zining go‘zalligi bilan Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan Sangardak sharshasi bor.

Turizmning juda ko‘p turlari mavsuvga qaraydi. Ammo tibbiyot turizmi bundan mustasno. Yilning istalgan vaqtida insonlar shifo istab yoki o‘z sog‘ligini yanada yaxshilash uchun sayohat qilishadi. Shuningdek bugungi kunda tabbiy dori vositalariga talab ortmoqda. Surxondaryoda ana shunday tabbiy davolash xususiyatiga ega to‘rtta maskanni ko‘rishingiz mumkin.



### 1-Diagramma. To‘rtta shifobaxsh suv maskani

**Omonxona** qishlog‘i Boysun tuman markazidan 16 km uzoqlikda joylashgan. Qir-adirliklar bilan qoplangan va so‘lim tabiatli makon hisoblanadi. Ushbu dargohga Ollohnning nazari tushgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero bu yerdagi mahaliy aholi shu paytgacha sira ham yuqumli kasalliklar bilan og‘rib shifokorga murojat qilmagan. Odamlar sariq kasalligi u oqda tursin, oshqozon kasalligi bilan ham og‘rimagan. Omonxona suvining o‘ziga xosligi jigar serrozi va jigar kasalliklariga shifobaxshligi hisoblanadi. Hatto shifoxonada davo topmagan bemorlar bu yerga kelib dardlariga shifo topib ketishgan. Suvning tarkibiga keladigan bo‘lsak, sulfat, magniy, azot ionlari, kreminiy kislotasi, temir, alyuminiy bor. Shuningdek suvda sulfat va magniy ionlari me’yordan bir necha barobar ko‘pligi uchun yuqori darajada o‘t so‘rvuchi, peshob haydovchi hamda qon bosimini tushiruvchi hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Omonxona bulog‘i shifobaxshligi bilan allaqachon mashhur bo‘lib ulgurgan. Bu suvning o‘t pufagi, jigar va boshqa ichki organlarni yuvib, darddan forig‘ etishda zamonaviy tibbiyotda qo‘llaniladigan gemodezdan bir necha barobar afzalligi aniqlangan, deya xabar beradi.<sup>1</sup>

Shuningdek, buloqdan uncha uzoq bo‘limgan balandlikda joylashgan tabiatning yana bir tilsimi bo‘lgan – g‘aroyib g‘or ham bor. Mahalliy aholi uni “Omonxona

<sup>1</sup> O‘zA

sovutgichi” deb ataydi. Chunki bu xona yoz chillasida 5-6, qishda 20 darajagacha iliq bo‘ladi. Shu bois, ko‘p asrlardan buyon tevarak-atrof odamlari sariyog‘ni shu g‘orda saqlashga odatlangan.

**Gidrozil ota** 1980- yillarda Jarqo‘rg‘onning Qorayog‘och mahallasi hududida artezan qudug‘i kovlanganda, o‘zi oqib chiqadigan suv bulog‘i ochilgan.

Gidrozil suvining tarkibiga kelsak, unda kalsiy, magniy, kobalt, xlor, ftor, rux, natriy, gidrokarbonat, marganeslar mavjudligi avvalo organism ehtiyojlarini qondiradigan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, biz istemol qilgan oziq-ovqat mahsulotlarining ingredientlarining maksimal darajada erishiga va o‘zlashtirishiga, uchinchidan tuz va qumlarning ajratish azolari orqali chiqib ketishiga imkon beradi.

Gidrozil suvi shu bilan bir qatorda shifobaxsh suv hisoblanadi. Xususan tomirlarning aterosklerozi, yurak ishemik kasalliklari, gipertoniya, bosh miya tomirlari aterosklerozi kabi kasalliklariga shifo bo‘ladi.

Yana shuni ta’kidlash lozimki, gidrozil suvi tarkibidagi gidrokarbonat bois azolarning shlaklaridan tozalanishga, o‘t pufagidagi, buyrakdagi va qovuqdagi qum va tuzlarning erib, organizmdan chqib ketishiga yordam beradi. Shuning bilan birga bu suv surunkali gipatet, xolisistitlar, gastrit, oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligi, surunkali yarali kolitlar, kabziyat bilan kechuvchi kasalliklarning oldini olish va davolash uchun shifobaxshdir. Gidrozil suvi tarkibidagi magniy elementining optimal darajada ekanligi asab tizimiga tinchlantiruvchi tasiri tufayli kardioneroz, nevrastiniya kabi asabiylashish bilan kechuvchi kasalliklarga ham ijobiy tasir ko‘rsatadi.

Mahaliy aholining gidrozil suvi haqidagi malumotlariga ko‘ra, dastlab ushbu joylarda neft qidiruv ishlari olib borilgan. Afsuski neft topilmagan. Lekin allohnning mo‘jizasi tufayli qazilgan joydan suv otilib chiqgan. Bu suv toza bo‘lishi bilan bir qatorda shifobaxsh ham edi. Vaqt o‘tishi bilan suvning tarifi yon-atrofga ham yoyildi. Bu yo‘ldan o‘tgan yo‘lovchilar to‘xtab suvdan ichishar va o‘zлari bilan olib ham ketishar edi. Keyinchalik buloq atrofida kichik-kichik do‘konlar vujudga keldi.

Ayrim hikoyalarga ko‘ra bir kuni bu maskanga suv ichish uchun hokim ham keladi. Mahaliy cholop sotuvchi bolalar hokimga o‘z cholopini tinmay sotishga urinadi va bexosdan ustiga to‘kib yuboradi. Bundan hokimning jahli chiqib ortiga qaytadi va odamlariga buloq atrofidagi bozorni yo‘q qilishni buyuradi. Ammo hokimning odamlari bozorni yo‘q qilish uchun buloq betini toshlar bilan yopadi. Oqibatda suv yo‘li berkiladi. Malum muddat bu joydan suv chiqmaydi. Biroq keyinchalik buloq yuzi qayta ochildi va o‘z faoliyatini boshladi.

Mahaliy aholi bu suvni buyrakga, o‘tga, oshqozonga, saharga foydali tuz yo‘q bo‘lib, buyrakdagi toshlarni erita olish xususiyatiga ega.

**G‘o‘rinbuloq** Sherobod tumanining Ko‘hitang tog‘lari bag‘rida joylashgan. G‘o‘rinbuloqning suvi ham shifobaxshligi jihatidan boshqa suvlardan kam emas. Ushbu maskan tuman markazidan 80 km uzoqlikda so‘lim tabiat qo‘ynida makon topgan. Bu suv buyrakdagi, o‘tdagi tuz va toshlarni tushirish qobiliyatiga ega. Aytishlaricha buloq suvi katta archa daraxtining tagidan chiqadi. Pastki qishloqda turuvchi insonlar ichishi uchun 1500 m pastga quvurlar yotqizilgan.

**Xo‘jai pok ziyyaratgohi** Oltinsoy tumanida joylashgan. Ushbu ziyyaratgohning kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Payg‘ambarimizdan keyin keyin sahabalari Abdurahmon ibn Auvf tomonidan milodiy 650-700 –yillarda ochilgan. Ziyyaratgohdan 8 km uzoqlikda Hovuz qishlog‘i joylashgan bo‘lib, 100 ta xonadonda 400 dan oshiq odam istiqomat qiladi. Bu qishloqda Abdurahmon ibn Auvf masjidi ham bo‘lib, 1895-yil qurilgan. Ammo keyinchalik masjid biroz xarob ahvolga kelib qolgan. Shu sababli mahaliy aholi tomonidan 2017-yil hashar yo‘li tamirlangan va 2018-yil fevralda ochilishi bo‘lib o‘tgan. Bundan tashqari bu ziyyaratgohda Qarluq Jome masjidi ha bo‘lib, unda 900 yillik chinorni ko‘rishingiz mumkin. Ziyyaratgoh suvi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, suv teri kasalliklariga, asab tizimiga, revmatizmga va oyoq og‘riqlariga davo sanaladi. Ko‘plab insonlar bu yerga shifo istab kelishadi va davo topib ketishadi. Ichki turizm bu joyda yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari Tojikiston va Afg‘onistondan ham odamlar kelishadi.

Bu to‘rt maskan tibbiyot turizmi uchun resurs bo‘la oladi. Bundan tashqari dam olish uchun ham Sangardak sharsharasi va Marvarid sanatoriyasi bor.

**Sangardak sharsharasi** – Surxondaryo viloyatining Sarosiyo tumani markazidan qariyb 55 kilometr uzoqlikda, tog‘lar orasidagi Sangardak qishlog‘ida joylashgan. Sharshara yer sathidan 120 metr balandlikdagi tog‘ qoyasidan otilib tushadi. Uning suvi yoz faslida ko‘payadi, kuzda esa kamaya boshlaydi. Mahalliy aholining aytishicha, uning zilol suvi baland tog‘lardagi muzliklarning erishidan hosil bo‘ladi. O‘ziga xos ajib tabiat, mayin esuvchi salqin shabadasi bu joyni kishilarning sevimli ziyyarat maskaniga aylantirgan. Sharsharaning zilol suvidan bahramand bo‘lish, oftob deyarli tushmaydigan xushhavo manzarani tomosha qilish istagidagi sayyoohlarning sanog‘i yo‘q.<sup>1</sup>

**Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimanki**, Surxondaryo viloyati tibbiyot turizmi uchun yetarlicha resurlarga ega maskan. Bu yerda turizmni rivojlantirish uchun chet eldan mutaxasis va texnologiyalar olib kelish, katta binolar qurishga ham hojat yo‘q. Shu o‘rinda bazi takliflarni aytib o‘tmoxchiman.

■ Dam olish va davolanish (to‘rtta shifobaxsh suv maskanlari) bo‘yicha suv marshrutlarini ishlab ishlab chiqish

<sup>1</sup> <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/07/27/1234567890-1462726>

- Ushbu marshrut bo‘yicha turpaket yaratish va uni chet elliklarga taqdim etish.
- Bu joylar haqida ijtimoiy tarmoqlarda bir nechta tildea reklama tarqatish
- Bundan tashqari turistlar uchun yaxshi xizmat ko‘rsata olish

Bu loyiha nafaqat tibbiyot turizmini rivojlantiradi, balki agroturizm va ekoturizmning ham rivojlanishiga tasir ko‘rsatadi. Sayyohlik salohiyatini oshiribgina qolmay yurtimiz madaniyati va qadryatlarini o‘zga mamlakatlarga ham namoyish etadi. Bundan tashqari, yangi ish o‘rinlarini yaratib, turizm industriyasini rivojlanadi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, turistik mahsulotlar: jumladan, hunarmandchilik mahsulotlari suvener sifatida olinib, aholi daromadiga daromad qo‘shadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. <https://www.trt.net.tr/uzbek/madaniyat-va-san-at/2020/07/27/1234567890-1462726>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2017/05/09/turizm/>
3. [https://www.google.com/search?q=xo%27jai+pok+ziyoratgohi&rlz=1C1GG\\_RV\\_enUZ949UZ949&coq=xo%27jai+pok+ziyoratgohi&aqs=chrome.0.69i59j69i61j69i60.11123j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?q=xo%27jai+pok+ziyoratgohi&rlz=1C1GG_RV_enUZ949UZ949&coq=xo%27jai+pok+ziyoratgohi&aqs=chrome.0.69i59j69i61j69i60.11123j0j4&sourceid=chrome&ie=UTF-8)